

ЎТМИШГА НАЗАР

1 МАХСУС СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST
SPECIAL ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2023

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент кимё - технология институти

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариш давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонкулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмудалиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Алнева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Санпова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети


Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc)
Ўзбекистон Миллий университети

Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети

1. Валишер Элмуродович Абиров ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ: ИЛМЙЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА МУНОЗАРА.....	5
2. Жалолиддин Тухташевич Аннаев ЎРТА АСРЛАР ДАВРИ ТАРМИТА-ТЕРМИЗДА БУДДАВИЙЛИК.....	13
3. Феруза Парходовна Атамуратова ҚАДИМГИ ВА ЎРТА АСРЛАР ДАВРИДА ТАРМИТА-ТЕРМИЗ.....	21
4. Мунаввар Абдурашид қизи Атамирзаева МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА БУХОРО АМИРЛИГИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ МАСАЛАЛАРИНИНГ ТАДҚИҚ ЭТИЛИШИ.....	28
5. Рашидахон Муқимовна Аҳмедова ЎЗБЕКИСТОН ШИФОБАХШ ЖОЙЛАРНИ ТАДҚИҚ ЭТИШДА ИЛМЙЙ ЭКСПЕДИЦИЯЛАР ВА ИЛМЙЙ-ТАДҚИҚОТ ИШЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИ....	35
6. Рашидахон Муқимовна Аҳмедова ТУРКИСТОН ТАБИЙ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИЛМЙЙ ЙЎЛГА ҚЎЙИЛИШИ.....	40
7. Дилафруз Аҳмедова Хусан қизи МАКТУБЛАР МАНБА СИФАТИДА.....	46
8. Oхunjon Axmat o'g'li Boboqulov MUSTAQIL KONGO DAVLATINING SSSR BILAN DIPLOMATIK ALOQALARI (davriy matbuot gazetalari tahlili asosida).....	53
9. Феруза Хаятовна Бобожонова БУХОРОДА МАКТАБ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ТАРИХИ (XIX АСР ОХИРИ-XX АСРНИНГ БИРИНЧИ ЯРМИ).....	58
10. Omon Olimjonovich Gadayev MUSTAQILLIK YILLARIDA SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK TARIXI.....	65
11. Дилорам Зияева МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ЎРТА АСРЛАРДА ЮЗ БЕРГАН УЙҒОНИШ. ВАТАНДОШЛАРИМИЗНИНГ ЖАҲОН ТАМАДДУНИГА ҚЎШГАН ҚИССАСИ.....	71
12. Farxod Sobirovich Ziyayev TURKISTONDA MUSTABID SOVET TUZUMIGA QARSHI QUROLI HARAКAT.....	77
13. Ubaydulla Mamat o'g'li Ismoilov SUYURLITEPA YODGORLIGI O'RNIDAGI SHAHARNING TARIXIY NOMI XUSUSIDA MULOHAZALAR.....	84

14. Baxtiyor Safarovich Nazirov JADID VAKILLARINING AHOLINI SOG‘LOMLASHTIRISH BORASIDAGI QARASHLARI.....	109
15. Рустам Абдуваид ўгли Неъматов ТУРК ХОҚОНЛИГИ ДАВРИДА ХОРАЗМ ВОҲАСИ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ТАРИХИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ.....	114
16. Дилорам Сангирова ЎРТА АСР ДАВЛАТЧИЛИК РАМЗЛАРИ СЎЗ ВА ТАСВИРДА.....	120
17. Lyudmila Mixaylovna Sokolova ANDIJON, NAMANGAN, FARG‘ONA VILOYATLARIDAGI HUNARMANDLAR USTOZIGA BAG‘ISHLANISH MAROSIMINING IBTIDOSI HAQIDA.....	130
18. Фазилат Нормуродовна Тургунова СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ МУСИҚАЛИ ДРАМА ТЕАТРИ ФАОЛИЯТИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ.....	142
19. Баходир Босимович Тўйчибоев ҚОЯТОШ ЁДГОРЛИКЛАРНИ САҚЛАШ ВА ФОЙДАЛАНИШ MASALALARI ХУСУСИДА.....	147
20. Раъно Нортўхтаевна Тўхтаева ЎЗБЕКИСТОНДА ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИДАН Кейинги ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТ...154	154
21. Dilshod Inomjon o‘g‘li To‘xtasinov NORIN VA QORADARYO ORALIG‘I HUDUDLARINING MANBASHUNOSLIK TAHLILI VA UCHTERA-2 YODGORLIGINING ARXEOLOGIK JIHATDAN O‘RGANILISHI.....	159
22. Mansur Xayrullayevich Fayzullayev XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИДА ТУРКИСТОННИНГ ИЖТИМОИЙ- ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТИГА ДОИР MASALALARНИ ЎРГАНИЛИШИ ТАРИХШУНОСЛИГИ.....	170
23. Rashid Mamatkulovich Xolmurodov TARIXIY O‘LKASHUNOSLIK FANINI O‘RGANISHDA SHAROF RASHIDOV MUZEYI MANBALARIDAN FOYDALANISH.....	177
24. Tuyg‘un Rajabovich Ernazarov TURKISTON GENERAL GUBERNATORLIGIDA BOJXONA XIZMATINING TASHKIL ETILISHI VA UNING FAOLIYATIDAN LAVHALAR (Rossiya imperiyasi va Xitoy aloqalari misolida).....	182
25. Бахтиёр Эргашевич Юлдашев, Светлана Владимировна Темирова ЗАРДУШТИЙЛИКНИНГ МУҚАДДАС КИТОБИ “АВЕСТО”ДА СИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ҚАРАШЛАР.....	187
26. Алишер Яркулов АРХЕОЛОГИЯ МЕРОСИ ОБЪЕКТЛАРИНИ МУЗЕЙЛАШТИРИШ ТУРЛАРИ ВА УСУЛЛАРИ ХУСУСИДА.....	195
27. Abdurahmonova Nodiraxon Xusnutdinovna HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA: IJTIMOIIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR.....	202



Dilshod Inomjon o'g'li To'xtasinov,
 Namangan davlat universiteti
 Arxeologiya kafedrası
 Tayanch doktoranti
 dilshodtoxtasinov2202@gmail.com

NORIN VA QORADARYO ORALIG'I HUDUDLARINING MANBASHUNOSLIK TAHLILI VA UCHEPA-2 YODGORLIGINING ARXEOLOGIK JIHATDAN O'RGANILISHI

For citation: Dilshod Tokhtasinov, SOURCE ANALYSIS OF THE AREAS BETWEEN NORIN AND KARADARYA AND ARCHAEOLOGICAL STUDY OF THE UCHEPA-2 MONUMENT. Look to the past. 2023, Special issue 1, pp.159-169

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.8072229>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Farg'ona vodiysida joylashgan Miyon Rudon muzofoti tarixining manbashunoslik va tarixshunoslik tahlili, Uchtepa Buluqmozor majmuasi «Uchtepa-2» ob'ekting tarixiy lokalizatsiyasi, tabiiy geografik joylashuvi, Uchtepa arxeologik yodgorliklar tarixiy topografiyasi, yodgorlikda o'tkazilgan arxeologik izlanishlar, yodgorlikka tashlangan shurf va transheya, keyinchalik keng ko'lamda olib borilgan arxeologik izlanishlar haqida ma'lumotlar berilgan. Arxeologik qazuv ishlari va topilmalari orqali «Uchtepa-2» ob'ekti antik va ilk o'rta asrlar otashparastlik ibodatxonasi ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Uchtepa Buluqmozor, arxeologiya, topografiya, yodgorlik, antik davr, ilk o'rta asrlar, Haylom, Miyon-rudon, Farg'ona vodiysi, Norin daryosi, shurf, transheya.

Дилшод Тухтасинов,
 Наманганский государственный университет
 базовый докторант кафедры археологии
 dilshodtoxtasinov2202@gmail.com

ИСТОЧНИКОВЫЙ АНАЛИЗ РАЙОНОВ МЕЖДУ НОРИНОМ И КАРАДАРЬЕЙ И АРХЕОЛОГИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ПАМЯТНИКА УЧТЕПА-2

АННОТАЦИЯ

В данной государственной источниковедение и историографический анализ истории Мияна Рудонской провинции, расположенной в Ферганской долине, исторической локализации Учтепинского булукмозорского комплекса «Учтепа-2», придромно-географического местонахождения, исторической топографии Учтепинских археологических памятников, проведены археологические исследования. в памятнике, шурф, брошенный в

памятник и траншей, сообщается о более поздних общих археологических раскопках. Путем археологических скопопок и находок было выявлено, что объект "Учтепа-2" представляет собой огнепоклонный храм древности и рнего Средневековья.

Ключевые слова: Учтепа Булакмазар, археология, топография, память, древность, раннее средневековье, Хайлам, Миян-рудон, Ферганская долина, река Норин, шурф, траншея.

Dilshod Tokhtasinov,
Namangan State University
Department of Archaeology
basic doctoral student
dilshodtoxasinov2202@gmail.com

SOURCE ANALYSIS OF THE AREAS BETWEEN NORIN AND KARADARYA AND ARCHAEOLOGICAL STUDY OF THE UCHEPA-2 MONUMENT

ABSTRACT

In this article, source studies and historiographical analysis of the history of the Miyan Rudon province located in the Fergana Valley, historical localization of the Uchtepa Buluqmozor complex "Uchtepa-2", natural geographical location, historical topography of Uchtepa archaeological monuments, archaeological research carried out in the monument, the pit in the monument and trenches, later extensive archeological excavations are reported. Through archaeological excavations and findings, it was revealed that the object "Uchtepa-2" is a fire-worshipping temple of antiquity and the early Middle Ages.

Index Terms: Uchtepa Bulakmazar, archeology, topography, monument, antiquity, early Middle Ages, Hailam, Miyan-rudon, Fergana valley, Norin river, pit, trench.

1. Dolzarbligi:

Markaziy Osiyoning janubiy mintaqasi xalqlari tarixi, madaniyati, ma'naviy olamida milodiy I ming yillikning so'nggi choragidan boshlab islom dini tarqalishi munosabati bilan tub burilish ro'y berdi. Qadimiy zardushtiylik, buddaviylik, tangrichilik, shuningdek barcha ibtidoiy ishonch va ibtidoiy diniy qarashlar barham topdi. Mintaqada islomga qadar erishilgan yuksak sivilizatsiya jarayonlari darajasi hamda ilmiy va empirik bilimlar islom davrining musulmon renessansi sharoitida transformatsiyalashib borishi barobarida islom dinining o'ziga xos Markaziy Osiyocha talqini yuzaga keldi. Bu jarayon islom aqidalariga zid bo'lmagan holda, tarixiy an'anaviy urf-odatlar, turmush madaniyati bilan bog'liq holatlarda amal qilinadigan rasm-rusumlar, ekologik madaniyat islom dini qobig'ida talqin etish orqali kechdi. Ayni shu murakkab o'tish davrida unutilishga mahkum etilgan diniy - mafkuraviy va ma'naviy umumbashariy qadriyatlar, hatto tarixiy tafakkur qiyofasiga ham islom dini ruhi singib bordi. Bugungi global intensiv iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy munosabatlar mintaqamiz tarixining islomgacha davri, unda kechgan madaniy, diniy-mafkuraviy va ma'naviy qarashlar rivoji va tendensiyalarini chuqur, atroflicha o'rganishni jiddiy zaruriyatga aylantirmoqda. Bu masala mintaqamiz xalqlari uchun tarixiy madaniy jarayonlar mushtarakligini ochib berishda muhim va yangi ilmiy xulosalar berishi shubhasiz. Mazkur masalalar jahon tarixshunosligida o'z echimini tugal topgan emas. Ayniqsa, arxeologik yodgorliklar materiallari asosida madaniy, ma'naviy, mafkuraviy masalalar nihoyatda kam o'rganilgan. Binobarin, arxeologlar turli ob'ektlarni o'rganish asnosida aksariyat hollarda topilmalarga funksional baho berish masalalarida taxminiy mulohazalar doirasida qoladilar. Holbuki, arxeologik yodgorliklarning funksiyalari shunchaki maishiy masalalardan ko'ra kengroqdir. Ularda o'tmish ajdodlarning ma'naviy hayoti, madaniy darajalari, diniy mafkuraviy qarashlari ham mujassamdir.

"Moviy osmon" ostidagi muzeyga aylantirishga rejalashtirilgan Namangan viloyati Norin tumani hududidagi "Uchtepa-2" Buluqmozor arxeologik yodgorligi materiallari Miyon Rudon muzofotini o'rganish uchun arxeologik jihatdan birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu ob'ekt Farg'ona vodiysi uchun otashparastlik va boshqa diniy qarashlar tarixini o'rganish uchun favqulodda

yangi ma'lumotlar bermoqdaki, bular vodiylar tarixida diniy, ma'naviy, mafkuraviy munosabatlar tarixi uchun yangi sahifa ochadi, deyishga asos beradi. Bu ob'ektning turfa xil diniy kult predmetlari va ko'p sonli altar- o'choqlari, qora tosh kultiga topinish mabuda va sanamlari, toshga ishlangan musavvirlik san'atining namunalari, ibodatxonaning original planirovkasi va boshqa omillar tomoshobin e'tiborini o'ziga tortuvchi ichki va xorijiy turistik marshrut tashkil etishni taqozo etadi.

Bu hol muzofot hududlarini Respublika va xalqaro turizm ob'ektlari qatoriga kiritish imkonini beradi. Bu o'ta muhim masalani hal qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoevning Respublikada ichki va xalqaro turizmni rivojlantirish masalalariga qaratilgan farmonlari va bu sohadagi hukumat qarorlari ruhiga aynan mos tushadi.

2. Metodlar:

Maqolada tarixiylik, ilmiy holislik va obyektivlik tamoyillariga to'la amal qilgan holda, ilmiy muammoni o'rganish va tahlil qilishda tarixiy-falsafiy uslublardan, ya'ni analiz va sintez, tizimlashtirish, mavhumlikdan murakkablikka intilish, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy solishtirish metodlardan foydalanildi. Ushbu usullar maqolaning mavzusining ilmiy-metodologik asoslarini tashkil etdi.

3. Tadqiqot natijalari:

Hozirgi kundagi Norin va Qoradaryo oralig'ida joylashgan maskan o'rta asarlardagi birlamchi manbalarda "Miyon Ruvzan", "Miyon Ruzan", "Miyon Rudon", "Ikki suv orasi" kabi nomlar bilan nomlangan (1-rasm).

Tadqiqotchi R. T. Xudayberganov Istaxriyning "Kitab al-masolik val-mamolik" asarini tadqiq etar ekan, qimmatli ma'lumotlarni qo'lga kiritdi. Jumladan, u arab tilidagi Miyon Rudon tarixiga oid manbalarni qiyosiy tahlil qildi: "Miyon Ruzan (Istaxriy matnlarida), Muqaddasiy uning nomini "Miyon rudiyya" shaklida qayd etgan [6:182]. Bu nom fors tilida daryolar orasi ma'nosini bildiradi". Bu viloyatning turkcha nomi "Ikki suv orasi" [5:491]. bo'lgan. Chunki, u Norin va Qoradaryo orasida joylashgan. ...Miyon Ruzan daryolar orasidagi shahar, qishloqlari ko'p, boshqa nomi Xaylam. Miyon Ruzan tuman nomi, qasabasini Xaylam deyishadi.[7:16].

"...Miyon Ruzan viloyatining bosh shahri Xaylom. Shaharning nomi Xaylom shahrining mahalliy hukmdori Xayr ibn Abul Xayr bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin. Xayr ibn Abul Xayr – Xaylom shahrining mahalliy hukmdori" [6:317].

Kichik Osiyolik tarixchi Yoqut al Hamaviy esa, "Mo'jam al-Buldon" (shaharlar lug'ati) asarida quyidagi ma'lumotlarni beradi: "Xaylom shahriga islom olamining birinchi xalifasi bo'lgan Abu Bakr As Siddiq avlodlaridan الشريفة حمزة بن علي بن الحسين بن محمد بن جعفر بن موسى الحيلامي Ash Sharif Hamza ibn Ali bin al-Muhsin bin Muhammad bin Ja'far bin Muso al Haylomi nisbatlanadi. Ash Sharif Hamza faqih fozil bo'lgan muhaddis. Roviylardan hadis rivoyat qilgan. U ham roviylarga xadis aytgan". [6:182,317].

Shuningdek, muallifi noma'lum "Hudud ul olam" asarida ham Haylom haqida tegishli ma'lumotlar uchraydi: "Xatlom-shaharcha, Xuroson amiri Nasr ibn Ahmad shu erda tug'ilgan ekan" [7:16].

Shuni ham e'tiborga olish lozimki, Miyon Rudon tarixiy muzofoti masalalari xorij tadqiqotchilarining asarlarida alohida tadqiqot ob'ekti bo'lgan emas. Ammo, xorijiy manbashunos olimlar O'rta Osiyo tarixiga oid ilmiy manbalarni tadqiq qilish jarayonida bevosita Xaylom okrugi (Miyon Rudon) masalalariga ham e'tibor qaratganlar. Shulardan biri gollandiyalik olim, Leyden universitetining professori Gue (Goeje), Mixael Yan de hisoblanadi (1836-1909 yy). 1886 yildan Rossiya Fanlar Akademiyasining muxbir a'zolicigiga qabul qilgan olim o'z ilmiy izlanishlarida al-Istaxriy, Ibn Xavkal, al-Muqaddasiy, Qudoma, Ibn Xordodbeh, Ibn Rushd va boshqalarning arab tilidagi tarixiy asarlariga sharhlar yozib, tadqiqotlar olib borgan [9:25].

Shuningdek, o'rta asr qo'lyozmalarini o'rgangan xorijlik olimlardan Tishner [12:31-80], Foret [10], Lure [11:22-29], Chabbi [8:493-506] o'z tadqiqotlarida Farg'ona vodiysidagi, xususan Xaylom muzofotidagi aholi punktlariga ham to'xtalib o'tganlar.

Farg'ona vodiysida arxeologik tadqiqotlar XIX asr oxirlaridan boshlab dastlab soha ishqibozlarining kuzatuvlari va ilk tadqiqotlari shaklida, so'ngra sovet davrida ilmiy asosli

izlanishlari davri sifatida ikki asosiy bosqichga bo'linadi. Boshlang'ich davrlarda arxeologik ishlar tavsifiy, so'ngra tashkiliy qazishmalar shaklida borgan edi.

Farg'ona vodiysining o'rganilishi ham boshqa hududlar singari umumiy Turkiston o'lkasining tabiiy boyliklariga qiziqish tufayli boshlandi. Bu hudud XIX asrning 70-yillaridan boshlab, asosan, biologlar, geograflar, geologlar tomonidan tadqiq qilindi. Tabiatshunos olimlardan A.P.Fedchenko[26:177] va A.F.Middendorf [27:300] lar o'z Farg'ona vodiysiga qilgan ekspeditsiyalarida bir qator arxeologik yodgorliklarni qayd etib o'tgan.

XIX asrning oxirlarida tarixchi N.I. Veselovskiy Farg'ona vodiysiga sayohatini amalga oshirdi. Aynan shu voqeadan Farg'ona vodiysini maxsus arxeologik o'rganish jarayoni boshlandi. 1930-1934 yillarda Norin daryosida GES qurilishi boshlanishi bilan. B. boshchiligidagi yirik arxeologik ekspeditsiyalar olib borildi. Lekin. Latynin [28:120-150], bu keyingi tadqiqotchilarning arxeologik tadqiqotlariga turtki berdi. Mintaqaning antik davr va o'rta asrlar tarixnavisligi M. E. Masson [29:52-54], T. G. Oboldueva[30:29-32], A. N. Bernshtam tadqiqotlarida ancha keng yoritilgan [31: 346], M.E. Voronts [34: 60-61], V. I. Sprishevskiy [35:17], S. S. Sorokin [36:134], Yu. A. Zadneprovskiy [18:328], Yu. G. Chulanov [38:197-206], N. G. Gorbunova [40:16-34] va boshqalar. Bundan tashqari, Farg'ona vodiysi arxeologiyasi rivojiga akademik A.P.Okladnikov, akademik A.Asqarov, akademik O'Isломov, arxeolog N.G.Gorbunova, akademik B.A.Litvinskiy, arxeologlar V.A.Bulatova, I.Axrorov, M.Isamiddinov kabi olimlar katta hissa qo'shganlar.

N.G.Gorbunovaning vodiy arxeologiyasiga qo'shgan hissasi katta. Olimaning faoliyat doirasi kengligi bilan ajralib turadi. Bular dehqonchilik madaniyati genezisidan tortib, ilk qo'rg'onlar, shaharlar, turmush anjomlari, xususan, sopol buyumlar va ularning ishlov texnologiyasi hamda bezash usullari, metal buyumlar va ularning funksional tahlili, qo'rg'onlar, qabristonlar va boshqalar [13].

Akademik A.A.Asqarovning oltmish yildan ortiq ilmiy faoliyati O'zbekiston arxeologiyasi taraqqiyotida alohida sahifadir. Olim kashf etgan madaniyat majmualari, jumladan, Buxoro, Surxondaryo, Toshkent, Farg'ona vodiysi kabi tarixiy madaniy mintaqalarda bronza, antik davr, ilk o'rta asrlarga oid ko'plab arxeologik yodgorliklarda olib borgan tadqiqotlarining muhim yo'nalishlaridan biri yodgorliklarning ma'naviy-madaniy, diniy tafakkur bilan bog'liq jihatlari bo'lib kelgan [1:112; 2:44; 3:231; 4:660]. Bu xulosalarning esa bizning mavzuyimiz uchun ahamiyati birlamchi darajadadir.

Norin va Qoradaryo oralig'i Miyon Rudon muzofoti arxeologik yodgorliklarining to'liq tavsifi va tasnifini yaratish natijasida quyidagi natijalarga erishiladi:

-“Uchtepa 2 Buloqmozor” otashparastlik ibodatxonasi arxeologik yodgorligining madaniy qatlamlari va mintaqadagi boshqa yodgorliklar majmui misolida Norin va Qoradaryo oralig'ida mil.avv. 1-ming yillik o'rtalaridan boshlab kechgan urbanistik jarayon mohiyatini ochib berish;

-Murakkab reja asosida barpo qilingan “Uchtepa 2” Buloqmozor arxeologik yodgorligining funksional mohiyatini aniqlash;

-Yodgorlikda ochilgan 50 dan ortiq altar-o'choqlar, 20 dan ortiq tosh altar-qurilmalar, 10 ga yaqin dafinalar va ularning guruh-guruh, yonma-yon, asosan bir sathda joylashgan manzarasidan kelib chiquvchi mohiyatini ochib berish va bu orqali yodgorlikda kechgan ijtimoiy hayotning xususiyatlariga kirib borish;

-“Uchtepa 2” Buloqmozor otashparastlik ibodatxonasi misolida Miyon Rudon muzofoti aholisining diniy dunyoqarashi xususiyatlarini o'rganish;

-Olov kulti va bu bilan bog'liq ehtimollik asosida Farg'ona vodiysida diniy qarashlar, ma'naviy-madaniy hayot dinamikasini o'rganish;

-Miyon Rudon muzofoti yodgorliklari bo'ylab va o'rta asr manbalari bo'yicha Xaylamiy atalmish ushbu hudud aziz-avliyolari hamda allomalar qadamjolari bo'ylab arxeologik hamda ziyorat turistik marshruti loyihasini yaratish va Respublika turistik salohiyati rivojiga hissa qo'shish.

Shuningdek, ushbu tadqiqot avvalo “Uchtepa 2” Buloqmozor yodgorligi misolida arxeologik jihatdan mutlaqo o'rganilmagan yangi tarixiy ob'ektni, uning tarixiy talqini haqidagi dastlabki xulosalarni ilmiy istifodaga ilk bora olib kiradi. Miyon Rudon muzofoti arxeologik yodgorliklari

hamda Xaylomiylar qadamjolar, ularning arxeologik va boshqa jihatdan tafsilotlari, tarixiy mohiyati va ahamiyati ilk bora ochib beriladi.

Tarixiy obidalardan yig'ilgan materiallar asosida mintaqada kechgan diniy hayot, uning xilma-xil e'tiqod shakllari, shu jumladan qadamjolar misolida islom dini bilan bog'liq yodgorliklarning islomgacha davr mafkuraviy genezisi islom dini orqali transformatsiyalashuvi masalasi ilk bora ilmiy talqin etiladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon o'tgan o'ttiz yil davomida vodiylarda olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlar metodologik jihatdan yangi davr islom sivilizatsiyasi uchinchilari davrining boshlanishi deb baholanishi mumkin.

So'nggi yillarda vodiylar arxeologiyasida yodgorliklarning tarixiy mohiyatini tushunishda yangi qadamlar qo'yilmoqda. Avvalo vodiylar shaharsozlik va urbanistik turmush tarzi, jamiyatda mehnat taqsimoti sohasidagi o'zgarishlar masalalarida bir qator ilmiy xulosalar nazariy jihatdan o'zini oqlamoqda. Masalan, intensiv sug'orma dehqonchilik madaniyati rivojlangan vodiylarda qadimiy shaharlarning tub qatlamlari haqida tugal fikrlar olg'a surilmay kelgan. Bugun esa, vodiylar shahar madaniyati tarixining ildizlari mil.avv. I ming yillik o'rtalari va o'sha ming yillikning so'nggi choraklari bilan belgilanishi mumkin bo'lmoqda.

Ammo vodiylarda keng ko'lamli arxeologik qazishmalar olib borilishiga qaramay, arxeologik yodgorliklar asosida diniy, ma'naviy, madaniy, ijtimoiy mafkuraviy tarixiy jarayonlar bilan bog'liq kuzatuvlar tizimli olib borilmagan. To'g'rirog'i, bu muhim sohada arxeologik materiallar talqini yaxlit shaklda qo'yilgan emas. Bu kabi masalalar ilk o'rta asrlarga oid ba'zi yodgorliklar misolida umum arxeologik talqin doirasida ko'rib chiqilgan. Masalan, Quva shahri xarobalarining buddaviy diniy mohiyatiga oid chiqarilgan xulosalar bunga misol bo'la oladi.

Tabiiy geografik joylashuvi. Farg'ona vodiysi o'zining geografik joylashuvi va tabiiy qulayligi bilan qadimdan dehqonchilik va chorvachilik keng rivojlangan o'lka bo'lgan. Bu erda Markaziy Farg'onaning qum barhanlaridan tortib to Pomir Tyanshan tog'laridagi alp o'tloqlarigacha uchratish mumkin. Norin va Qoradaryo suvlarining qo'shilishidan vujudga kelgan Sirdaryo sharqdan g'arbga qarab Xo'jand "darvozasi" tomon yo'nalib, vodiyni ikkiga, janubiy hamda shimoliy Farg'onaga ajratgandek bo'ladi. Janubda Turkiston – Oloy tog'laridan, shimolda esa Chotqol-Qurama tog'laridan bir necha o'nlab katta-kichik soylar Sirdaryo tomon yo'nalib, ba'zilar Sirdaryoga qo'shilib ketsa, boshqalari bo'lsa suvining ozligidan unga eta olmay adirlar orasida qolib ketadi. Bu o'z navbatida o'ziga xos tabiiy sharoitga (mikroiqlimga) ega bo'lgan vohalar va vohachalarni vujudga keltiradi [15:5]. Biz tadqiqot o'tkazayotgan Uchtepa Buloqmozor majmuasi ham Farg'ona vodiysi Norin va Qoradaryo oralig'ida, Namangan-Xaqqulobod avtomagistral yo'lining chap sohilida joylashgan (2-rasm).

Uchtepa Buloqmozor majmuasi dengiz satxidan 419 metr balandlikda, geografik jihatdan qulay joyda joylashgan. Yodgorlikning shimol tomonidan Markaziy Tyanshandan boshlanuvchi Norin daryosi (uning umumiy uzunligi 807 km) oqib o'tadi.

Yodgorlik joylashgan hududning janubidan Sirdaryoning asosiy irmoqlaridan bo'lgan, Farg'ona tizmasining janubiy-sharqiy va Oloy tizmasining shimoliy yon bag'irlaridan boshlanadigan Tar va Qorag'ulja daryolarining qo'shilishidan hosil bo'ladigan Qoradaryo oqib o'tadi. Bu daryolarga to'xtalib o'tishimizdan maqsad, aynan yodgorlik joylashgan qishloq har ikki daryoga ham chegaradosh. Shimolda Norin daryosi, janubda esa Qoradaryo. Aynan yodgorlik joylashgan hududni biz ikki daryo oraligi deb bema'lol aytishimiz mumkin. Bu ikki daryolarning shu hudud atroflaridan o'tganligi qadimdan bu erlik aholiga dehqonchilik qilish imkoniyatini bergan.

Arxeologik qazuv ishlari. Uchtepa Buloqmozor majmuasida dastlabki tadqiqot ishlari 1963-yilda akademik A.Asqarov boshchiligidagi boshlandi. O'sha paytda tepaliklarning yoshini aniqlash maqsadida "Uchtepa-1" yodgorligida stratigrafik shurf qazildi. Shurfning yuqori qatlamlarida ilk o'rta asrlar davri, pastki quyi qatlamlaridan antik davriga tegishli sopol parchalari chiqib boshladi. Shurf 2 metr chuqurlikkacha qazildi. Antik davr qatlamining yuqori qismidan qoramtir angobli sopol parchalari, uning quyi qatlamlaridan tiniq qizil angobli sopol parchalari uchratila boshlandi. Shurf materikkacha etkazilmay, qazishma ishlarining uchinchilari kuni qazishma ishlarini to'xtatishga to'g'ri kelgan. Chunki, yodgorlikni shurflash shaxsiy tashabbus bo'lib, uni davom ettirishga katta mablag'

sarflash zaruriyati va bunga davlat tomonidan rasmiy ruxsatnoma bo'lishini talab qilar edi. Shundan keyin oradan ancha o'tib, 2019-yil aprel oyidan boshlab Uchtepa-2 obyektida arxeologik qazuv ishlari boshlandi. Bizgacha saqlangan tepa maydoni taxminan 0,50 ga teng. Yuqorida takidlanganidek, yodgorlikning tarixiy topografiyasiga ko'ra, qazishma olib borilayotgan tepa aslida antik va ilk o'rta asrlarga tegishli qadimgi katta shaharning bir bo'lagi bo'lgan. Uning asosiy qismi sobiq sovetlar davrida tekislanib, ekinzorlarga o'g'it, atrof aholiga tomorqa er uchastkasi qilib bo'lib berib yuborilgan. Bizgacha saqlangan tepa maydoni taxminan 0,50 ga teng. Qazishma jarayonida ochilgan me'moriy qurilma qoldiqlari va topilmalar tarkibiga ko'ra, bu tepa qadimgi shahar aholisining Quyoshga sig'inadigan muqaddas ibodatxonasi bo'lgan. Ibodatxonaga bundan 2 ming yil avval asos solingan. Arablar bosqini davrida ibodatxona vayron etilib, keyin qayta tiklanmagan. Xozirgi kunda Uchtepa-2 yodgorligi milodiy VIII asr oxirlaridan shakllana boshlagan va hozirgacha davom etib kelayotgan qishloq qabristoni bilan qo'shib ketgan. Xatto, keyingi yillarda uning quyoshga o'ngay tomonida qabrlar paydo bo'la boshlaydi. Yodgorlikda arxeologik qazishmalar boshlangach, qishloq oqsoqollarining roziligi olinib, bunga chek qo'yildi.

Yodgorlikni o'rganishda avval uning eng baland nuqtasiga reper (dastlabki) nuqtasi belgilanib, tepa markaziy maydonining ustki qismi 2×2 metrli kvadrat setkalarga bo'lib chiqildi. Har bir kvadrat maydoni sho'rhok mayin tuproqdan 1 metr chuqurlikda tozalandi. Tozalangan maydondan na qurilish qoldiqlari, na sopol parchalari uchratildi. So'ng tepa maydoni 4 ga bo'linib, ular ham birin-ketin sho'rhok mayin tuproqdan tozalana boshlandi. Ayniqsa tepasini shimol va shimoliy-sharqiy tomonlari tevarak-atrof aholi tomonidan chiqindixonaga aylantirilgan bo'lib chiqdi. Yodgorlikning bu qismini chiqindidan tozalash davomida uning bu tomonlari materikkacha buzib tashlanib, turli xil xo'jalik xonalari qurilganligi tufayli tegishli madaniy qatlam saqlanmaganligi aniqlandi. Shundan so'ng yodgorlikning yoshini aniqlash, yodgorlikda tarkib topgan madaniy qatlamlarning xronologik ketma-ketlikda shakllanishini o'rganish maqsadida uning ikki joyida strategifik shurf va transheya qazildi.

Stretegrafik shurf(3-rasm) tepalikning shimoli-g'arbiy tomonida, tepalik chegarasi 3,5×2,40 metr xajmda qazildi. Uning chuqurligi hozirgi er satxidan to ona er (materik) qatlamiga 1,70 sm. ni tashkil etadi. Ona er materik qatlami och-jigarrangli tuproqdan iborat bo'lib, uning ustida kulrang qatlam joylashgan. Bu qatlamda tiniq va qizil rangda angoblangan sopol parchalari va hayvon suyaklarining siniqlari uchratildi. Uning yuqorisida 1,30 sm qalinlikda sarg'ish tuproqli madaniy qatlam joylashgan. Bu qatlam tarkibida to'qqizil va ochqizil ranglarda angoblangan sopol parchalari, mog'orbosgan sopol qozon siniqlari, yongan o'tin ko'mir va uy hayvoni suyaklari uchratildi. Angoblangan sopol parchalari juda yupqa stenkali, kulolchilik charxlarida yasalgan. Qazishmalarni yuqori qismining yuzi yangitdan chim bosib ketgan. Shurf maydonida qurilma qoldiqlari uchratilmadi.

Stratigrafik transheya (4-rasm) tepalikning shimoliy tomonidan janubga qaratib solindi. Uning uzunligi 10 m., kengligi 1 metr iborat. Transheya kesmasida shimoldan janub tomon paxsa va xom g'isht qatlamlari aralash madaniy qatlamlarni kesib 4 metrgacha tushildi, uning janubiy adog'ida esa 2 metr masofada 7 metrli chuqurlikda ochildi.


Ma'lum bo'ldiki, ibodatxona loyi zich qilib yaxshi ishlov berilgan, chamasi 1,5 metr qalinlikdagi platforma ustiga qurilgan. Transheya kemasining madaniy qatlami qazishma sathidan 5-5,5 metrgacha davom etadi. Platforma tarkibida arxeologik artefaktlar uchratilmadi, u ko'kimtir balchiq loyni eslatadi. Transheya madaniy qatlamlarining pastki qismida antik davrga, yuqori kesmasida esa ilk o'rta asrlarga tegishli sopol parchalari va hayvon suyaklari uchratildi. Transheyaning shimoliy boshlanishidan (chegarasidan) g'arbiy devori uzunasi bo'ylab 8,70 m. masofada 5,5 metr chuqurlikda doira shaklida qurilgan altar-o'choqning yarmi ochildi. Altarning diametri 90 sm., uning rezervuari oq rangdagi kulga to'la. Kullar orasidagi tiniq qizil rangda angoblangan sopol parchalari topildi. Ushbu altar-o'choq ibodatxonaning ilk boshqichiga tegishli bo'lsa kerak. Stretegrafik transheya qatlamlari tarkibini o'rganishda, uning kesmasida platforma va madaniy qatlamlarning xronologik ketma-ketlikda o'rganish og'ir kechdi, ya'ni transheya kesmasida madaniy qatlamlarni bir-biridan ajratish juda qiyin bo'ldi. Chunki, obekt tuprog'ning xom loydan qurilgan paxsa va g'ishtlarning tarkibini sho'r bosgan, uning qurilishida ishlatilgan ko'kimtil balchiq

loy va joyning shoʻr bosgan, uning qurilishida ishlatilgan koʻkintir balchiq loy va joyning gʻalvirak tuprogʻi qamish va yongʻoq ildizlariga toʻla boʻlib, asrlar davomida ana shu qamish va yongʻoq ildizlari amalga kirib, tepalikning ostidan to yuzasiga qadar, tepalik tanasini butunlay qamrab olgan. Yantoq tomirlari kattalashib, xatto ibodatxona atashkalarini xar joydan yorib chiqib, madaniy qatlam va uying qurilmalarini saqlashiga katta zarar keltirgan. Ana shu shu yovvoyi oʻt-oʻsimliklarni joylanishi tufayli ibodatxona devorlari va madaniy qatlamlar katta zarar koʻrib-uqalanib, devorlarning saqlanishi xam, ilmiy laboratoriya kesmasida aks etganidek, gʻalvirak xolatda yoki shu yovvoyi oʻt-oʻsimliklarni jonlanishi tufayli ibodatxona devorlari bizgacha etib kelgan. Tepalikning qaysi qismini ochib oynadek tozalamaylik 3-4 kun oʻtar-oʻtmas ildizi chuqur ketgan yantoq va qamish nishlari oʻsib chiqib boshladi. Ochilgan maydonni shoʻr bosadi. Bu holat transheya kesmasida ham yaqqol koʻzga tashlanadi. Ammo, ilmiy ekspeditsiya oldida qator muhim vazifalar turar edi. Ulardan eng asosiysi qadimgi muhandislarning ibodatxona qurilishidagi bosh gʻoyaviy rejasini arxeologik qazishmalar orqali aniqlash edi. Uchtepa 2 obʼekti taxmin qilinganidek mozar-qoʻrgʻon boʻlib chiqmadi, aksincha qandaydir qadimgi meʼmoriy qurilma boʻlib, uni qazish jarayonida oʻzbek xalqining islom diniga qadar otashparastlik diniy eʼtiqodi bilan bogʻliq favqulodda noyob, jahon turistlarining diqqat-eʼtiborini oʻziga tortuvchi Otashparastlik ibodatxonasi boʻlib chiqdi.

5.Xulosalar:

Arxeologik izlanishlar natijasida Uchtepa-2 obʼekti markaziy otashparastlik ibodatxonasi ekanligi tasdiqlandi. Shundan soʻng faraz tugʻiladiki, ibodatxona mavjud boʻlgan hududda albatta shahar ham boʻlishi kerak. Ushbu farazni isbotlash maqsadida yozma manbalarga murojat etildi. Yozma manbalarning guvohlik berishicha, ushbu obʼekt joylashgan hudud Xaylom shahri ekanligi tarixiy dalillarda oʻz isbotini topmoqda (Koson - Axsikat besh farsax, Axsikat - Vonkas etti farsax, Vonkas - Xaylom uch farsax, Vonkasdan daryogacha (Qoradaryo) boʻlgan yoʻl bir farsaxdan bir oz ziyoda). Manbalardagi maʼlumotlarni taqqoslash, taxlil qilganimizda Xaylom daryosi (Norin) bilan Qoradaryo oʻrtasidagi Miyon Ruvzon yoki Miyon Rudan okrugining bosh shahri Xaylom Uchtepa yodgorliklari joylashgan joyda, Vonkas yoki Vanket shahri esa hozirgi Sartepa yodgorligi joylashgan hudud ekanligi maʼlum boʻldi. Loyiha oldida turgan asosiy vazifa nafaqat yangi ochilgan otashparastlik ibodatxonasini oʻrganib ilmiy muomilaga kiritish, shu bilan birga uni «Moviy osmon» ostidagi muzey qilishga ilmiy jihatdan tayyorlash edi. Bu masalada Namangan viloyati hokimiyat rahbarlari bilan kelishilib, hokimiyat va «Oʻzbekturizm» homiyligida ibodatxona otashkadalari va meʼmoriy devor qoldiqlari namoyishida uning noyob topilmalarini ekspozitsiya stendlariga joylashtirib, ichki va xalqaro turizm uchun yangi obʼektni tayyorlash koʻzda tutildi. Hozirgi kunda mana shu maqsadni amalga oshirish yoʻlida izlanishlar olib borilmoqda.


ILOVA




1-rasm. Tarixiy Miyon Rudon muzofoti oʻrnidagi yodgorliklar xaritasi.



2-rasm. Uchtepa-1 va Uchtepa-2 obyektlarining google earth dasturida olingan surati.



3-rasm. Stratigrafik shurf. Uchtepa-2



4-rasm. Stratigrafik transheya. Uchtepa-2

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Аскарлов А.А. Поселение Кучуктепа. — Ташкент: Фан, 1979. — 112 с.
2. Аскарова А. А. Бронзовый век Южного Узбекистана. (К проблеме развития локальных очагов древневосточной цивилизации): Автореф. дис. ... д-ра ист. наук. — М., 1976. — 44 с.
3. Аскарлов А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. — Ташкент: Фан, 1977. — 231 с.
4. Аскарлов А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиши. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2015. -Б. 660.
5. Бартольд В. В. Сочинения. Том III.-Москва: Наука, 1965.-С.491.
6. Истахрий. Китаб ал-масалик вал-мамалик (Таджикот, араб тилидан таржима, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Р.Т. Худайбергенов).-Тошкент: Фан, 2019.-Б.182.
7. Худуд ул олам.-Тошкент: Ўзбекистон, 2008.-Б.16.
8. Chabbi N. Ribat //The Encyclopaedia of Islam, vol. 8. – Leiden, 1995. – P. 493 – 506.
9. De Goeje M.J. Die Istakhri – Balkhi frage //Zeitschrift der Deutschen morgenlandischen Gesellschaft. – Leipzig, 1871. – № 25.
10. Forkt P., Kaplony K. The Journey of Maps and Images on the Silk Road. – LEIDEN-BOSTON: Brill, 2008.
11. Lurje P.B. Arabosogdica: Place-names in Transoxiana as written in Arabisc script //Manuscripta Orientalia, vol. 7, № 4. – Kecerber, 2001 (Sankt-Petersburg). – P.22 – 29.
12. Taeschner F. Zeitschrift der Deutschen morgenlandischen Gesellschaft. – Leipzig. – № 77 (2). – S. 31-80.

13. <https://kronk.spb.ru/library/gorbunova-ng-2001-list.htm>: Н.Г.Горбунова илмий ишлари библиографияси
14. Абдуллаев М.Г. «Бобурнома» да Фарғона водийси топонимикаси // Буюк ипак йўли ва Фарғона водийси. Республика илмий-амалий андуман материаллари. –Т., 2004. Б.194-200.
15. Анарбоев А.А. Ўзбек давлатчилиги тарихида қадимги Фарғона ва Ахсикент // «Ўзбек халқи ва давлатчилиги» Республика илмий семинари материаллари. Самарқанд. 2001. Б.5-22.
16. Анорбоев А. Исломов Ў. Матбобоев Б. Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона. — Т., 2000. 4. Горбунова Н.Г., Козенкова В.И. Сым-тепе – поселение в Фергане // АСГЕ. Л., 1974. Вып. 16.
17. Горбунова Н.Г. Керамика поселений Ферганы первых веков нашей эры // ТГЕ. Т. XX. С. 114-146.
18. Горбунова Н.Г. Тхе Султуре оф Ансиент Фергхана. ВИ сентурй Б.С. – ВИ сентурй А.Д. 1986
19. Заднепровский Ю.А. Городище Эйлатан (к вопросу о датировке памятника) // СА. 1960. № 3.
20. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. // МИА, №118. –М-Л. Наука. 1962.
21. Исҳокхон то ўра Иброт 1913 й. «Туркистон вилоятининг газети» №48.
22. Латынин Б.А. Некоторые итоги работ Ферганской экспедиции 1934 года // АСГЕ. Вып. 3. Л., 1961.
23. Мартинов А.И. Шер Я.А. «Методы археологического исследования», М., «Высшая школа», 2002.
24. Малиничев Г. «Археология по следам легенды и мифов», М., «Вече», 2006. 24. Матбобоев Б.Х., Машрабов З. Древний и средневековый Андижан. –Т., 2011.
25. Независимость и история: новые подходы к изучению истории Узбекистана. –Т., 1997
26. Федченко, А.П. Жамият асосчиси А.П.нинг Туркистонга саёҳати. Федченко, Туркистон генерал-губернатори К.П. фон-Кауфман / А. П. Федченко. - Санкт-Петербург; Москва: тури. ММ. Стасюлевич, 1875. - 177 п.: (Табиатшунослик, антропология ва этнография ихлосмандлари жамияти маълумотлари; Т.ХИ,7-сон).
27. Миддендорф А. Ф. Фарғона водийси очерклари / К. Шмидтнинг “Тупроқ ва сувларни кимёвий ўрганиш” асари иловаси билан; В. И. Ковалевскийнинг немис тилидан таржимаси - Санкт-Петербург: Император Фанлар академиясининг босмаҳонаси, 1882.-300б.
28. Латинин Б.А. Дарёда режалаштирилган электр стантсияси худудида ишлайди. Фарғ ьонадаги Норин (Гидроэлектрлоийҳа) // Известия ГАИМК. Нашр. 110. Янги биноларда археологик ишлар. Т ИИ . - Ленинград: 1935. - С. 120-150; Латинин Б.А. 1934 йилдаги Фарғ ьона экспедитсияси ишининг ба ўзи натижалари // АСГЕ. Нашр. 3. - Ленинград: Давлат нашриёти. Эрмитаж, 1961. - С. 109-170.
29. Ибн Хавқал << Китоб сурат ул-ард >> Тошкент-2011. 293-бет
30. Оболдуева Т Г. Шимолий Фарғ ьона канали бо ўйича археологик кузатишлар // СССР Фанлар Академияси О ўзбекистонбо ўлимининг "Известия". - Тошкент: Фан, 1940. Но 10. - С. 29-32 ;
31. Оболдуева Т.Г. ЛВСталинномидаги БФС қурилиши бо ўйича археологик экспедитсиянинг биринчи отрядининг иши то ўг ўрисида ҳисобот // Тарих ва археология институти материаллари. Т ИВ . - Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1951. - С. 7- 41.
32. Массон М.Е. номидаги Катта Фарғ ьона канали қурилишида археологик назорат экспедитсияси. ЛВСталин // КСИИМК. Но 4. - Москва - Ленинград: СССР Фанлар академиясининг нашриёти, 1940. - С. 52-54.

33. Бернштам А.Н. Марказий Тян-Шан ва Помир-Олой ҳақидаги тарихий ва археологик очерклар // ИИВ № 26. - Москва - Ленинград. СССР Фанлар академиясининг нашриёти, 1952. - 346 п.
34. Воронетс М.Е. 1950-1951 йилларда Ўзбекистон ССР ФА Тарих ва археология институти ва Тарих музейининг Фарғ ьона худудидаги археологик тадқиқотлари // Ўзбекистон ССР тарихи музейи материаллари. Нашр. ИИ . - Тошкент, 1954.-С. 60-61.
35. Спришевский В.И. Чуст манзилгоҳи (Фарғонанинг бронза даври тарихига оид). // Аннотатсия. дисс.. самимий. тарих фанлар. - Тошкент: Фан, 1969. - 176.
36. Сорокин С.С. Фарғ ьона катакомба қабрлари сопол буюмларининг келиб чиқиши ҳақидаги баъзи саволлар // СА. № XX . -Москва: СССР Фанлар академиясининг нашриёти, 1954. - С. 134.
37. Заднепровский Ю.А. Фарғ ьонанинг қадимги деҳқончилик маданияти // ИИВ. Но 118. - Москва - Ленинград. СССР Фанлар академиясининг нашриёти, 1962. - 328 п.
38. Чуланов Ю.Г. Шимолий Фарғ ьонанинг айрим янги ёдгорликлари // СА. Но 2. - Москва: Наука, 1967. - Б. 247; У. Ахсикеттураржойи// СА. Но 3. -Москва: СССР Фанлар академиясидан, 1963. - С. 197-206.
39. Горбунова Н.Г. Фарғ ьона вилояти археологик ёдгорликларини о'рганиш натижалари (Фарғ ьона тарихи ва маданиятига) // СА. Но 3. - Москва : Наука , 1979. - С. 16-34;
40. Горбунова Н.Г. Қадимги Фарғона маданияти. (милoddан аввалги В.И аср - милoddий В.И аср). БАР халқаро серияси 281, Оксфорд. 1986. - п . 365.
41. Ortikov, Y. A. (2021). Ethno cultural identity and its formation. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 516-522.

ЎТМИШГА НАЗАР

1 МАХСУС СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST
SPECIAL ISSUE 1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000